

CASE STUDY METODINI KIMYO O'QITISH METODIKASIGA INTEGRATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashev Elyor Yuldoshevich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,

kimyo kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola Case study texnologiyasining kelib chiqishi, yirik maktablari, hozirgi kundagi ta'lim muassalarida tutgan o'rni, boshqa metodlardan afzallik va kamchiliklari haqida.*

***Kalit so'zlar:** Case study, kommunikativlik, muammoli vaziyatlar, aniq-real vaziyatlar, tanqidiy fikrlash.*

Keyslarni o'qitish oliy ta'limda ommalashgan usul bo'lib, biznes, tibbiyot, huquq va turli sohalarda qo'llaniladi. Bu usul Garvard Business School kabi ta'lim muassasalarida faol qo'llaniladi, bu yerda talabalar real biznes keyslarini o'rganadilar va ularni tahlil qiladilar. Oliy ta'lim o'quv rejasida fan uchun ajratilgan o'quv yuklamasining 50 % i mustaqil ta'limga ajratilgan bo'lib, bunda talabalarda erkin ijodiy fikrlash, topshiriqlarni mustaqil hal qila olish qobiliyatini hamda berilgan vazifalarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Lekin hozirda talabalar mustaqil ta'limi ilmiy-uslubiy jihatdan qoniqarli darajada tashkil etilgan, deb aytish qiyin. Semestr davomida talaba asosan referat yozish va uni himoya qilish orqali baholanadi. Demak, fan uchun rejalashtirilgan o'quv materialning 50 % qismi bitta referat yozish orqali "bajarilmoqda". Hozirgi kunda case-study bo'yicha o'qitish keng ommalashmoqda [1].

Hozirda case study ishlab chiqishning ikki yirik klassik maktabi Garvard (Amerika) va Manchester (Yevropa) bu borada yetakchilik qiladi va har yili 1000 ga yaqin huquqshunoslik, tibbiyot sohasi hamda biznes keyslar ishlab chiqilmoqda. Masalan, AQSh kimyogarlari kongressining jurnali Journal Of

Chemical Education kimyo fani bo'yicha keyslarni yaratish yuzasidan uslubiy ishlarni nashr etib kelmoqda. MDH davlatlarida ham 2000-yildan boshlab keys texnologiyasi texnik va tabiiy fanlarni o'qitish amaliyotida qo'llanila boshlandi [2].

Hozirgi kunda O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo kafedrasida kimyo fanidan seminar va amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlar o'tkazishda keys texnologiyasining tarkibiy qismlaridan bo'lmish aniq vaziyatlarga asoslangan ta'lim usullaridan foydalanib kelinmoqda.

Case studyning asosini real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Keyslarni yechish davomida ta'limdan ko'zlangan maqsadga to'la erishiladi hamda talabada quyidagi ko'nikmalar rivojlanadi:

1. Bilimlarni amalda qo'llay olish: Talabalar o'z bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularga materialni yaxshiroq tushunishga va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: vaziyatni tahlil qilish talabalardan tanqidiy fikrlashni, mantiqiy fikrlashni va asosli qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi.

3. Muloqot ko'nikmalarini oshirish: Guruhda vaziyatlarni muhokama qilish o'quvchilarning muloqot qilish va ishontirish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

4. Ssenariylarning xilma-xilligi: holatlar o'quvchilarga boshqaruv va qaror qabul qilishning murakkab jihatlarini tushunishga yordam berish uchun turli ssenariylar va vaziyatlarni taqdim etadi.

Biroq, vaziyat usulining kamchiliklari ham mavjud, masalan:

1. Cheklangan ma'lumot: holatlar vaziyatni to'liq tushunish uchun yetarli ma'lumot berilmasligi mumkin.

2. Umumlashtirishning yo'qligi: Ba'zi talabalar yangi bilimlarni vaziyatlardan boshqa holatlarga moslashtirishda qiynalishi mumkin. [3]

Umuman olganda, keys usuli o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga va haqiqiy hayotdagi kasbiy qiyinchiliklarga tayyorlanishga yordam beruvchi samarali o'qitish usuli hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, talabalarga nafaqat mavjud bilimlarni o'rgatish, balki, ularda aniq vaziyat bilan tanishuv, izlanish, muhokama etish, qaror qabul qilish, natijalarni taqqoslash, zarur bilimlarni mustaqil o'rgana olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жамсаранова С.Д., Пластинина З.А. Сборник задач и упражнения по биологической химии. Изд. ВСГТУ-2006.
2. Козина, И. Case study: некоторые методические проблемы /И.Козина // Рубеж.- 1997.- № 10- 11.- С. 177-189.
3. Рейнгольд, Л.В. За пределами CASE — технологий / Л.В.Рейнгольд //Компьютерра.- , 2000. - №13-15.
4. (сайт: <http://www.casemethod.ru>)